



**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISHDA LOYIHALARNI  
INVESTITSION MOLIYALASHTIRISH INSTITUTIDAN FOYDALANISH  
ISTIQBOLLARI**

**Xodjayev Azizbek Shavkatovich**

*“O’zmilliybank” AJ*

*magistr*

*e-mail: RShukurov@nbu.uz*

*Tel: +99878 150-70-94*

**Annotatsiya.** Mazkur konferensiya materialida iqtisodiy tarmoqlarni modernizatsiya qilishda investitsion loyihalarning ahamiyati shuningdek, investitsion loyihalarini moliyalashtirilishiga oid tushunchalar o’rganilgan, shuningdek bunga oid olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiy barqarorligining asosiy kafolatlaridan biri sifatida investitsion loyihalar ko’riladigan bo’lsa, uning rivojlanishining asosiy omili sifatida moliyalashtirish institutlari tomonidan moliyalashtirish jarayoni turadi. Tadqiqot doirasida dunyoning rivojlangan mamlakatlarning tajribasi hamda Respublikamizning yetakchi banklarining tahliliy ma’lumotlari o’rganilib, ularning investitsion portfeli va raqobatbardoshlik darajasi tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so’zlar:** iqtisodiyot, modernizatsiya, loyiha, moliya instituti, investitsiya, portfel, rentabellik, foiz, kredit, barqarorlik, depozit, qimmatli qog’oz.

**Annotation.** This conference paper examines the significance of investment projects in the modernization of economic sectors, as well as the concepts related to the financing of investment projects. In addition, the views and scientific approaches of scholars regarding this issue have been analyzed. Since investment projects are considered one of the principal guarantees of a country’s economic stability, the financing process carried out by financial institutions serves as a key factor in ensuring their effective development. Within the scope of the research, the experience of developed countries and analytical data from leading banks of the Republic of Uzbekistan were studied, and an analysis of their investment portfolios and competitiveness levels was conducted.

**Keywords:** economy, modernization, project, financial institution, investment, portfolio, profitability, interest rate, credit, stability, deposit, securities.

### **Kirish**

Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish hamda infratuzilmani rivojlantirish ulkan hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalarni talab etadi. Bugungi kunda an’anaviy bank kreditlari orqali kreditlash tizimi bunday yirik va kapital talab loyihalarning ehtiyojlarini to’liq qoplashda turli xil muammolar kuzatilmoqda. Buning sababi shundaki, an’anaviy kreditlashda asosiy urg’u qarz oluvchining joriy balansi va o’tmishdagi moliyaviy tarixiga qaratiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishda bir qancha muammolar kuzatilmoqda. Bular quyidagilar:

- \* Loyihalarning o'zini qoplash jarayoni uzoq muddatli ekanligiga teskari mutanosiblikda bank resurslarining qisqa muddatli ekanligi;
- \* Sindikatlashgan kreditlashning sustligi;
- \* Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi sababli, qo'shimcha resurs jal etish imkoniyatining cheklanganligi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar mamlakat miqyosida iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda loyihalarni investitsion moliyalashtirish institutidan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-amaliy o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Rossiya olimlari, xususan I.I.Minin o'z tadqiqotida xalqaro moliyaviy institutlar, xususan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) faoliyatining MDH davlatlari iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilib, bu institutlar bilan hamkorlik samaradorligi mamlakatning institutsional salohiyati va kredit yondashuvlarining mosligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib bergan.[1]

Yuqoridagi iqtisodchi olimning fikrlarini O'zbekiston Respublikasi uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aksariyat investitsiya loyihalari ayna yuqoridagi xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga moliyalashtirilmoqda.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim A.B. Tadjiev tomonidan olib borilgan izlanishlarda xalqaro moliyaviy institutlar orqali moliyalashtirilgan investitsion loyihalarning mintaqaviy taqsimoti, tarmoq bo'yicha yo'naltirilishi va bu jarayondagi muvozanat muammolari ko'tarilgan. [2]

Darhaqiqat, mamlakatning yalpi iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda ularga mos investorlar va resurslar taqsimlash ushbu hududning yanada rivojlanish hamda aholi bandligining ta'minlanishiga olib kelishi isbotlangan.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Islom taraqqiyot banki (IsDB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va boshqa donor tashkilotlarning ham ishtiroki muhim sohalarda o'sishga turtki bermoqda. Bunday xilma-xil moliyalashtirish manbalari mamlakatda iqtisodiy barqarorlik va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Germaniyada mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish maqsadida kichik biznes subyektlari doirasidagi loyihalarga beriladigan tijorat banklari kreditlarini bonifikatsiya qilish usuli keng qo'llaniladi. Bonusning mazmun-mohiyati shundan iboratki, tijorat banklari tomonidan




kichik biznes subektlariga oid loyihalarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi va bozor stavkasi o'rtasidagi farq davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

Yuqoridagi moliyalashtirish usuli xalqaro me'yorlarga muvofiq samarali deb baholanganligi sababli o'z ilmiy tadqiqotimizda buni kengroq tahlil qilishga qaror qildik. Buning sababi shundaki, mamlakatimizda xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning 50 foizdan ortiq qismi davlat ahamiyatiga molik loyihalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa, ushbu loyihalar doirasida mablag'jalb etishda davlat kafolatini olishni taqozo etadi.

### 1-rasm

#### Investitsiya loyihalarini bonifikatsiya usuli yordamida kreditlash<sup>20</sup>



Bu yerda

- 1 – davlat va loyiha subekti o'rtasida shartnoma tuzish;
- 2 – davlat va tijorat banki o'rtasida shartnoma tuzish;
- 3 – tijorat banki va loyiha subekti o'rtasida shartnoma tuzish;
- 4 – tijorat banki imtiyozli stavkada kredit beradi;
- 5 – davlat tijorat bankiga bozor va imtiyozli kredit stavkalari o'rtasidagi farqni to'laydi;
- 6 - loyiha subyekti kreditni to'laydi.

#### Xulosa va takliflar

Tadqiqot jarayonida investitsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining rolini yaxshilash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aksariyat investitsiya loyihalari ayna yuqoridagi xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga moliyalashtirilmoqda;

<sup>20</sup> Rasm muallif tomonida Germaniya FR tajribasini o'rgangan holda chizildi

- mamlakatning yalpi iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda ularga mos investorlar va resurslar taqsimlash ushbu hududning yanada rivojlanish hamda aholi bandligining ta'minlanishiga olib kelishi isbotlangan.

Fikrimizcha, respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda moliya institutlarining ahamiyatini oshirish uchun quyidagi tadbirni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida yirik kapitaltalab loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy garov tizimidan voz kechgan holda, loyiha risklarini "raqamli erta ogohlantirish" (Early Warning System) va "huquqiy kafolat zanjiri" asosida loyiha ishtirokchilari (bank, davlat, investor va SPV) o'rtasida mutanosib taqsimlashning yangi institutsional modeli ishlab chiqish taklifi asoslangan

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Minin I.I. Mejdunarodnie finansovie instituti i ix rol v razvitiie ekonomik SNG // Vestnik finansovogo universiteta. 2020. №3. S. 17- 24.

2. Tadjiev A.B. Xalqaro kredit resurslarini tarmoq va hududlar kesimida samarali taqsimlash masalalari // O'zbekiston iqtisodiyoti. 2023. №1. B. 38-45.

3. <https://www.db.com>

